

Quduqdan qasrga



14:10 / 31.03.2019 3452

7

Shu o'rmonda safar qiladigan bir jamoat bor edi. Ular yo'lda chanqab qolib, quduq izladilar. Quduqni ko'rib, u yerga suv olib kelish uchun bir kishini yubordilar.

U kishi quduqqa keldi va chelakni tashladi. Chelakni tortib olayotganida chelak og'ir edi. Uni chiqarib olib qarasa, ichida bola bor. U kishi hayratlanib, baqirib yubordi: "Suyunchi beringlar! Bu bola-ku". Odamlar juda xursand bo'lib, uni yashirib qo'ydilar.

Misrga yetib kelgach, bozorda turib: "Kim bu bolani sotib oladi?!" deb baqirishdi. Aziz Yusufni bir necha dirhamga sotib oldi. Tojirlar uni sotib yuborishdi va Yusufni tanimadilar. Hokim uni olib, qasriga keldi va xotiniga: "Yusufning hurmatini joyiga qo'y, chunki u aqlli bola", dedi.